BO‘LAJAK PEDAGOG KADRLAR KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOUCHING TEXNOLOGIYASI

Polvonova Gulnora Rovshan qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagog kadrlar kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda kouching texnologiyasining roli tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kouching modelining pedagogik-psixologik asoslari, uning talabalarda mustaqil fikrlash va motivatsiyani oshirishdagi o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda kouching usullaridan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kouching, bo‘lajak pedagog, kasbiy kompetensiya, motivatsiya, shaxsiy rivojlanish, pedagogik mahorat, innovatsion ta’lim, samaradorlik.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimi pedagoglardan nafaqat nazariy bilimlarni egallashni, balki doimiy o‘zgarib turuvchi sharoitlarga moslashish, kreativ fikrlash va o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishni talab etadi. Shu sababli, oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, xususan, kouching yondashuvi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bu texnologiya avvalo an’anaviy tayyor bilim berish usullaridan voz kechib, talabaning ichki imkoniyatlarini safarbar etish orqali uning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan hamkorlik jarayonidir. Agar an’anaviy pedagogikada o‘qituvchi "bilim beruvchi" va "nazorat qiluvchi" rolida bo‘lsa, kouching texnologiyasida u "yo‘naltiruvchi" va "maslahachi" vazifasini bajaradi. Bu jarayonning asosiy tamoyili — "Men senga o‘rgatmayman, balki sening o‘rganishing uchun sharoit yarataman va yordam beraman" g‘oyasidadir. Bu texnologiya talabaning muayyan hayotiy yoki kasbiy maqsadlariga erishishiga yo‘naltirilgan konsultatsiya va trening usullaridan doimiy ravishda foyfalanishni nazarda tutadi.. Uning mohiyati bo‘lajak pedagogning o‘z ichidagi savollarga mustaqil javob topishiga, uning yashirin qobiliyatlarini ochishiga va amalda yuqori natijalarga erishishiga sharoit yaratishdan iborat hisoblansada ,bo‘lajak pedagoglar bilan ishlashda kouchingning eng samarali vositasi" GROW" modeli hisoblanadi.

Kouching — bu insonning o‘zida mavjud bo‘lgan eng yaxshi malaka va ko‘nikmalardan foydalanishiga yordam berish jarayonidir. Kouch mijozning o‘zi ishlab chiqqan va unga xos bo‘lgan qobiliyatlarni yuzaga chiqarishiga ko‘maklashadi. Bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda kouching texnologiyasini qo‘llash — bu shunchaki o‘qitish usuli emas, balki talabani o‘z kasbining ustasiga aylantirish strategiyasidir. Bu texnologiya yosh mutaxassislarda tahliliy fikrlash, hissiy barqarorlik va kreativ yondashuv kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirib, ularni zamonaviy ta’limning talablariga to‘laqonli tayyorlaydi.

Pedagogik kouching — bu o‘qituvchi va talaba yoki bo‘lajak pedagog o‘rtasidagi hamkorlik jarayoni bo‘lib, u bo‘lajak mutaxassisning kasbiy va shaxsiy imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishga qaratilgan.Bo‘lajak pedagogda mustaqil qaror qabul qilish, kreativ fikrlash va mas’uliyatni his qilish ko‘nikmasini shakllantirish kabi muhim tushunchalarning ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Bu texnologiyani qo‘llashdan maqsad shunchaki o‘rgatish emas, balki insonning ichki salohiyatini ochish orqali uning o‘z maqsadlariga samaraliroq erishishini ta’minlaydigan hamkorlik jarayonidir. Zamonaviy ta’lim tizimi pedagoglardan nafaqat nazariy bilimlarni egallashni, balki doimiy o‘zgarib turuvchi sharoitlarga moslashish, kreativ fikrlash va o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishni talab etadi. Shu sababli, oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, xususan, kouching yondashuvi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bo‘lajak pedagog kadrlar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda kouching texnologiyasi bu -hozirda ta’lim tizimidagi eng samarali innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi. An’anaviy o‘qitish usullaridan farqli o‘laroq, kouching talabani tayyor qoliplarga solmaydi, balki uning ichki salohiyatini ochishga xizmat qiladi va insonning o‘z oldiga qo‘ygan muayyan maqsadlariga erishishiga yordam beradigan maxsus jarayon bo‘lib, u bo‘lajak pedagogning professional va shaxsiy rivojlanishida katalizator vazifasini o‘taydi. Kouching texnologiyasi bo‘lajak pedagoglarda quyidagi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi:Refleksiv kompetensiya: Talaba o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini xolis baholashni o‘rganadi. Bu esa dars o‘tish jarayonidagi xatolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishga yordam beradi.Kommunikativ kompetensiya: Kouching jarayonida qo‘llaniladigan "ochiq savollar" bera olish mahorati bo‘lajak o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqotini yangi bosqichga olib chiqadi. U o‘quvchilarga tayyor javobni aytish o‘rniga, ularni fikrlashga chorlovchi savollar berishni o‘rganadi.Shundagina u o‘z maqsadlari yo‘lida to‘g‘ri usullarni tanlaydi va amalda yaxshi natijaga erishadi.

Kreativlik va moslashuvchanlik: Kouching talabalarni odatiy qolipli fikrlashdan xalos etadi, dars jarayonidagi kutilmagan pedagogik vaziyatlarda noodatiy va samarali yechimlar topishga o‘rgatadi.Bu avvalo darsning mazmunini yanada boyitadi hamda birgina o‘qituvchi emas guruh talabalari ham o‘zlarini darsda qulay tutishadi.

Pedagogik oliygohlarda kouching elementlarini joriy etish talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini va kasbiy mas’uliyatini oshiradi. Ayniqsa, malakaviy amaliyot davrida mentor-kouchlar yordamida o‘tkazilgan individual suhbatlar bo‘lajak pedagogning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi ya’ni kouching texnologiyasi bo‘lajak pedagog kadrlarni shunchaki axborot yetkazuvchi mutaxassis emas, balki o‘quvchi shaxsini rivojlantira oladigan, zamonaviy fikrlovchi va o‘z ustida tinimsiz ishlovchi professional sifatida shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Pedagogik jarayonda kouch rolida chiquvchi mentor yoki o‘qituvchi quyidagi yuqori malakali ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart:Analitik qobiliyat: Tadqiqot o‘tkazish, tahlil va sintez qilish, induktsiya va deduktsiyadan foydalangan holda vaziyat modelini qurish hamda ishlarning real holatini ko‘ra olish.Emotsional intellekt: O‘z hissiyotlarini boshqarish, talabaning hissiy holatini tushunish va uni tartibga solish qobiliyati.

Kouching- inglizcha” coaching “so‘zidan olingan bo‘lib — "o‘rgatmoq, ilhomlantirmoq ma’nolarni anglatadi. Kouching — bu insonning muloqot samaradorligini oshirish orqali uning ichki salohiyatini oshkor qilishdir. Timoti Galvey o‘z fikrlarida "Kouchingni o‘rgatish emas, balki o‘rganishga yordam beradi" - deb hisoblagan. "Kouching — jamoani nazorat qiluvchi xatti-harakatlarning muqobili bo‘lgan boshqaruv xatti-harakati hisoblanadi" deb ta’riflaydi Jon Uitmor.Kouching — bu konsalting va o‘qitish usuli; u klassik konsalting va treningdan farq qiladi, chunki Kaucher maslahat va qattiq tavsiyalar bermaydi, balki mijoz bilan birgalikda yechimlarni qidiradi. Koucherlik motivatsiya yo‘nalishi bo‘yicha Kouchingilikdan farq qiladi. Murabbiy bilan ishlash hayotda va ishda ma’lum bir maqsadga, yangi, ijobiy shakllantirilgan natijalarga erishishni o‘z ichiga oladi.Kaucherlik — muvaffaqiyat ilmi bo‘lsa-da,inson eng yaxshi o‘rganuvchidir. Kaucher — boshqalar hayotining barcha sohalarida, jumladan, professional faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan shaxshdir.Kouching — bu butun ta’lim tizimida, barcha sohalarda o‘zaro hamkorlik samaradorligini oshirish vositasidir: o‘qituvchi-talaba, o‘qituvchi-ma’muriyat, o‘qituvchi-o‘qituvchi. Poydevor — ishonch. Rag‘batlantiruvchi omillar esa hurmat, har kimning ahamiyati, o‘sish va rivojlanish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kundagi 90 foiz kouchinglar bu pedagoglar qatlamini tashkil qiladi. Shu sababdan kouchingni rivojlantirishda pedagoglar imiji, kompetentligi darajalariga alohida urg‘u berishni muhim deb bildim."Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim tizimida pedagogning roli nafaqat bilim beruvchi, balki mahoratli kouch sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik mahoratni faqatgina texnik bilimlar bilan cheklab bo‘lmaydi; unda insonshunoslik fanlari va muloqot madaniyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bo‘lg‘usi mutaxassislarni tayyorlashda ularning shaxsiy imiji va psixologik kompetentligini rivojlantirish – ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishning asosiy omilidir."

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. – R. 553-593.

2. Merilin Atkinson. Jizn v potoke: Kouching = Art & Science of Coaching Flow The Core of Coaching. — M.: Alpina Pablisher, 2013. — 330 s. (Transformatsionniy kouching: Nauka i iskusstvo).

3.Djon Uitmor. Vnutrennyaya sila lidera. Kouching kak metod upravleniya personalom = Coaching for Performance: Growing Human Potential and Purpose. — M.: «Alpina Pablisher», 2012. — 312 s.

4.Stanislav Shekshnya. Kak effektivno upravlyat svobodnimi lyudmi: Kouching. — M.: Alpina Pablisher, 2011. — S. 208.

5.Besser-Zigmund K., Zigmund X. Samokouching: Kultura lichnosti menedjerov i rukovoditeley = Coach Yourself: Personlichkeitskultur fur Fuhrungskrafte. — SPb.: Izdatelstvo Vernera Regena, 2010. — S. 176.

6.Lavrova O. V. Lyubov v epoxu postmoderna: Ad hoc kouching o lyudyax "Do vostrebovaniya". — M.: «Delo i servis», 2010. — S. 448.

7.Treysi, Brayan. Texnologiya dostijeniya: Turbokouching po Brayanu Treysi =-TurboCoach: A Powerful System for Achieving Breakthrough Career Success. — M.: Alpina Pablisher, 2009. — S. 224.

8.Dauni, Maylz. Effektivniy kouching: Uroki koucha kouchey = Effective Coaching Lessons from the Coaches’ Coach. — M.: Dobraya Kniga, 2008. — S. 288.

9.S.N.Jo‘rayeva,M.A.Narbasheva.Shaxs psixologiyasi va kouching.T:"-EVRIKA NASHRIYOT UYI"2024 - 132-138-155-157betlar.